



SHIFOKOR

SO'ZI

SAMARQAND DAVLAT
TIBBIYOT INSTITUTI
NASHRI

GAZETA 1938 YILDAN "MEDITSINA FANI UCHUN" NOMI BILAN CHIQA BOSHLAGAN O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTINING BMTDAGI NUTQI JAHON E'TIROFIDA

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Birlashgan Millatlar Tashkilotining Bosh Assambleyasining 75-sessiyasida so'zlagan nutqi - nafaqat yurtdoshlarimiz balki, jahonning taniqli davlat arboblari, siyosatchilari, mashhur olimlar, xalqaro ekspertlar diqqat markazida turibdi.

Mamlakatimiz rahbari tomonidan ilk bor buyuk bobokalonimiz Alisher Navoiy asos solgan tilda - ya'ni o'zbek tilida BMTning minbarida nutq so'zlashi juda katta tarixiy voqeya bo'ldi.

Davlatimiz rahbari o'z nutqida dunyodagi va mintaqadagi muammolar xususida O'zbekistonning siyosiy yondashuvni aniq va teran yoritib berdi. Prezidentimizning BMT Bosh Assambleyasi 75-sessiyasida o'zbek tilida so'zlagan nutqi dunyo jamoatchiligi tomonidan yuksak e'tirofqa sazovor bo'lganligi barcha Vatandoshlarimizni behad xursand etdi.

Mana shunday e'tirofni Afg'oniston milliy islomiy harakati asoschisi, Afg'oniston o'zbeklari rahbari Marshal Abdul Rashid Do'stum tomonidan aytilgan fikrlari ham diqqatga molikdir. Bu haqda Abdul Rashid Do'stum: "O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirmonovich Mirziyoyevning Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 75-sessiyasida so'zlagan nutqini alohida tarixiy voqeya deb hisoblayman. Bu nutqda dunyodagi va mintaqadagi muammolar xususida

bo'lmaydi. Ayniqsa, globallashuv jarayonida bu xolat ko'zga yaqqolroq tashlandi.


Bugungi O'zbekiston aholisining 60 foizdan ko'pini yoshlar tashkil qilishi nutqda qayd etildi. Ko'pchilikni quvontiradigan va o'rnatq olishga undaydigan bu xolatga e'tiboringizni qaratmoqchiman. Bu - yoshlarning jamiyatda munosib o'rin egallashi uchun O'zbekiston rahbariyati tomonidan alohida g'amxo'rlik hamda e'tibor ko'rsatilayotganidir.

Nutqda yoshlar salohiyatini namoyon etish haqida ham fikr yuritildi.

O'zbekistonda bugun Yoshlar parlamentlari, Yoshlar ishlari agentligi faoliyat ko'rsatmoqda. Jahonning juda ko'p davlat rahbarlari uchun o'rnatq bo'ladigan bunday islohatlar zamirida mamlakatning ertangi kuni uchun qayg'urish, munosib vorislar tayyorlash maqsadi mujassam.

O'zbekiston rahbarining taklif va g'oyalari allaqachon amaliy ishlar, harakatlar misolida hayotga ko'cha boshladi. 2020 yil avgust oyida BMT shafeligida yoshlar huquqlariga bag'ishlangan Samarqand xalqaro forumi o'tkazildi. Bu muhim anjuman jahon yoshlarining o'zaro fikr almashishiga keng imkoniyat yaratdi.

(davomi 2 sahifada...)



O'zbekiston siyosiy yondashuvi aniq va teran yoritib berilgan.

Shu bilan birga Prezidentimiz tomonidan BMT Bosh Assambleyasining 75 - sessiyasida ilgari surilgan Yoshlar huquqlari to'g'risidagi BMT konvensiyasini qabul qilish tashabbusi aslida dunyo hamjamiyati uchun ogohlik qo'ng'irog'i bo'ldi.

Biz yoshlar haq-huquqlari masalasiga shu kungacha yetarli darajada e'tibor qaratmadik. Oqibatda mintqa va mamlakatlar uchun xarakterli bo'lgan yoshlar muammolari chegaradan chiqib, xalqaro miqyosdagi global tahdidga aylanib bormoqda.

Yoshlar haq-huquqlari bilan shug'ullanuvchi xalqaro tashkilotlar hamda mustaqil ekspertlarning kuzatishicha, turli mamlakatlarda yashashdan qat'iy nazar, navqiron avlodning intilishlari, izlanishlari, qiziqishlari, orzu va umidlarida katta farq

AZIZ DO'STLARIM, HAMKASBLARIM, AKA-UKA, OPA-SINGILLARIM!



Y a x s h i
kunlarimizning bogshlanishida Mustaqillik bayrami kirib kelmoqda. Ushbu yil barchamiz uchun sinovli, mashaqqatli yil bo'ldi desak adashmaymiz. Lekin ushbu sinovli kunlar xalqimizning qanchalik bag'ri kengligi, sabrli va insoniyligi baland ekanligini namoyon qildi. Ushbu sinovli kunlar ortda qolgani rost bo'lsin! Shu ulug' ayyom Mustaqillik

bayrami biz uchun yaxshi kunlarning debochasi bo'lsin.

Ushbu fursatdan foydalanib barcha hamkasblarimizni, mehnatkash tibbiyot xodimlari, pedagoglarimiz, talaba va otalarimiz, do'stlarimizni Mustaqillik bayrami bilan tabriklamoqchiman. Barchamizga yanagi bayramlarga sog'-salomat, to'kis holda ishlarimizning rivoji bilan etish nasib qilsin!

Mustaqillik abadiy bo'lsin!

**Samarqand davlat tibbiyot institut rektori, professor
J.A. RIZAEV**

DAVLAT MUKOFOTI MUBORAK BO'LSIN!

O'zbekiston Respublikasi mustaqilligining yigirma to'qqiz yilligi munosabati bilan koronavirus pandemiyasiga qarshi kurashishda fidoyilik ko'rsatgan tibbiyot sohasi xodimlaridan bir guruhini mukofotlash to'g'risida Prezident Farmoni e'lon qilindi.

Farmonga binoan Samarqand davlat tibbiyot instituti o'quv ishlari prorektori, yuqumli kasalliklar, epidemiologiya va teri-tanosil kasalliklari kafedrası mudiri N.A. Yarmuxamedova "Sog'lom turmush" medali bilan mukofotlandi.

Davlat mukofoti bilan Nargiza Anvarovna Yarmuxamedovani institut jamoasi nomidan tabriklab sihat-salomatlik, oilaviy baxt-saodat, yangi ilmiy va kasbiy muvaffaqiyatlar tilab qolamiz!



SHIFOKOR SO'ZI

СамГМИ ВЫИГРАЛ МЕЖДУ- НАРОДНЫЙ ГРАНТ "SMILE TRAIN"



Самаркандский государственный медицинский институт выиграл грант международной организации Smile Train (New York, USA) с ежегодным финансированием в размере 62500 долларов США в течение 10 лет. Smile Train (New York, USA) является организацией, занимающейся коррекционными операциями для детей с расщелиной губы и нёба.

Совместная деятельность института с благотворительной организацией Smile Train будет направлена на совершенствование методов хирургического лечения детей с расщелиной губы и нёба, финансовую и методическую поддержку лечебных учреждений, специализирующихся на оказании помощи детям с аномалиями развития челюстно-лицевой области, а также организации эффективного процесса реабилитации пациентов с данной патологией.

Пресс-служба СамГМИ

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTINING BMTDAGI NUTQI JAHON E'TIROFIDA

(...davomi, boshlanishi 1 sahifada)

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev yoshlar haquqlarining himoyachisi, yoshlarning cheksiz g'amxo'ri, muxtasar aytganda, nafaqat O'zbekistonning, balki butun dunyoning kelajagiga befarq emasligini amalda ko'rsatdi.

Shu bilan bir qatorda Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev o'z nutqida Markaziy Osiyoning buguni, hamda kelajagi, uni qardoshlik, do'stlik va hamkorlik mintaqasiga aylantirish g'oyasi bilan chambarchas bog'liq ekanligiga urg'u berdi. Jumladan, haqiqatan ham, Markaziy Osiyo ajralmas, ajratib bo'lmaz mintaqada ekanligini tarix hamda bugun bizga yanada aniqroq, yaqqolroq, oydinroq ko'rsatdi, anglatdi.

Bu o'rinda Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning bugun Markaziy Osiyo davlatlari bir kuchga, bir ittifoqqa aylanishida muhim o'rin tutganligini hyech kim inkor qilmasa kerak. U o'z qarashlariga sodiq qolgan holda, BMT Bosh Assambleyasining 75-sessiyasida ham Markaziy Osiyo bo'yicha muhim taklif va tashabbuslarni ilgari surdi.

Prezidentimiz BMT Bosh Assambleyasining 75-sessiyasida "Maqsadimiz - har bir insonning asosiy huquq va erkinliklarini, salomatligi va faravonligini ta'minlaydigan adolatli global tizimni birgalikda yaratishdir" degan nazariyasini ilgari surdi. Men nutqdagi mazkur o'rinni bejiz keltirganim yo'q. Bu - nafaqat O'zbekiston xalqi, balki butun dunyo oldida ulkan ma'suliyatni his qilgan insonning chin yurakdan aytgan dil so'zlaridir.

Insoniyat boshiga yog'ilayotgan juda ko'p balo - ofatlar aslida mana shu global adolatli tizim yo'qligidan emasmi? Insonning huquq va erkinligi, salomatligi, hamda faravonligi, xavf ostida qolayotgani, tahdidlar ko'payib, biz erishgan taraqqiyot darajasi, uning oldida ojiz qolayotgani bugun hyech kimga sir emasku! Xatolar girdobida qolgan insoniyat qachon ulardan xulosa chiqaradi?!

Mana bu ma'lumotga e'tiboringizni qaratmoqchiman: oxirgi 4 yilda O'zbekistonning qo'shni davlatlar bilan o'zaro savdo hajmi besh barobar oshgan. Bu mohir diplomatik natija, juda ko'p davlatlar uchun o'rnakdir. Buning natijasida Markaziy Osiyo davlatlari Prezidentimiz ta'kidlaganidek, ushbu sinovli kunlarda bir birini yolg'iz qoldirmasdan, o'zaro yelkadosh bo'ldilar.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev o'z nutqlarida, unda davlatlar o'rtasidagi hamkorlikni rivojlantirish, tinchlik, xavfsizlik va barqarorlikni mustahkamlash istiqbollari to'g'risida sayyoramiz aholisiga to'g'ridan-to'g'ri murojaat qildilar.

O'zbekiston rahbari BMT Bosh Assambleyasining 75-sessiyasida nafaqat O'zbekiston, balki Markaziy Osiyo

mamlakatlarining barqaror rivojlanishi uchun katta xavf solayotgan global iqlim o'zgarishi va Orol dengizi qurishi oqibatida vujudga kelgan ekologik muammolarga jahon hamjamiyati e'tiborini qaratib, Orolbo'yi mintaqasini ekologik innovatsiyalar va texnologiyalar hududi, deb e'lon qilish haqida BMT Bosh Assambleyasining maxsus rezolyusiyasini qabul qilishni, hamda ushbu muhim hujjat qabul qilingan sanani xalqaro ekotizimlarni muhofaza qilish va tiklash kuni deb e'lon qilishni taklif etdi.

BMT Bosh Assambleyasining 75-sessiyasida Prezidentimiz tomonidan "Barqaror taraqqiyot maqsadlariga erishish va inson huquqlarini ta'minlashda parlamentlar rolini oshirish to'g'risida" BMT Bosh Assambleyasining maxsus rezolyusiyasini qabul qilish taklif etilishi - jahon jamoat arboblari va xalqaro ekspertlarida katta taasurot qoldirdi.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev o'z nutqlarida Afg'onistonni Markaziy Osiyoning ajralmas qismi deb ta'kidladi. 2018 yil mart oyida Afg'oniston bo'yicha bo'lib o'tgan yuqori darajadagi Toshkent konferensiyasi xalqaro afg'on muammosini hal qilishda yangi bosqichni boshlab berganligi, shuningdek, sentyabr oyida Doha shahrida Afg'onistonning turli siyosiy kuchlari o'rtasida boshlangan tinchlik muzokaralaridan umidi katta ekanligini bildirdi. Prezidentimiz umumiy tahdidlarga qarshi hamkorlikda kurashish, dunyoning xavfsiz hamda barqaror rivojlanishini birgalikda ta'minlash zarurligini jahon hamjamiyatiga yana bir marta eslatib o'tdilar.

Mamlakatimiz rahbari BMT Bosh Assambleyasining 75-sessiyasida ilgari surgan g'oyalardan yana biri - mamlakatimizda iqtisodiy islohatlar jadal davom ettirilmoqda. Biz birinchi marta kambag'allikni kamaytirish haqidagi qat'iy qarorimizni ochiq e'lon qildik. Bunga tadbirkorlikni rivojlantirish va qo'shimcha ish o'rinarini yaratish, investisiya va biznes muhitini yaxshilash hamda zamonaviy infratuzilmalarni barpo etish, odamlarni yangi kasb-hunarlariga o'rgatish va aholiga manzilli ijtimoiy yordam ko'rsatish orqali erishish yo'llari haqida ta'kidlab o'tdi.

Shu nuqtai nazardan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning dunyo bo'yicha qashshoqlikni tugatish va kambag'allikka qarshi kurashishni BMT Bosh Assambleyasi navbatdagi sessiyasining asosiy mavzularidan biri sifatida belgilash, hamda ushbu masalalarga bag'ishlangan global sammitni o'tkazishni taklif etishi bejiz emas. Shuning uchun ham bu tashabbusni sessiya qatnashchilari, xalqaro tashkilotlar va ekspertlar qo'llab quvvatlamodalar.

Shokir G'AFFOROV

SamDTI Ijtimoiy va gumanitar fanlar kafedrası
professori, tarix fanlari doktori.

ТАЛАНТЛИВЫЙ ОРГАНИЗАТОР, КРУПНЫЙ РУКОВОДИТЕЛЬ И ИЗВЕСТНЫЙ УЧЁНЫЙ-ХИРУРГ

Одним из людей, внесших несомненный весомый вклад в организацию здравоохранения и высшего медицинского образования в Узбекистане является профессор Азамат Мухитдинович Шамсиев.

Известный организатор здравоохранения, опытный хирург, продуктивный ученый-новатор Азамат Мухитдинович Шамсиев родился в Хатырчинском районе Самаркандской (ныне Навоийской) области. В 1968 году окончил Ташкентский государственный медицинский институт. Свою врачебную карьеру начинал в хирургическом отделении центральной больницы Булунгурского района Самаркандской области, а затем продолжил работу ординатором отделения детской хирургии Самаркандского государственного медицинского института.

После прохождений целевой аспирантуры в Ростов-на-Дону медицинском институте Азамат Мухитдинович в 1973 году успешно защитил кандидатскую диссертацию. В 1973-1976 гг. работал на кафедре детской хирургии Самаркандского государственного медицинского института. За это время он внедрил в практику отделения детской хирургии клиники несколько новых методов диагностики и лечения, к примеру катетеризацию подключичной вены, и в результате в отделении было достигнуто значительное улучшение динамики хирургического лечения больных детей. Научная деятельность молодого ученого была продолжена в клинике детской хирургии Донецкого медицинского института с 1977 по 1980 год, где он работал в качестве ординатора. В 1981-1982 годах завершив на здесь работу над докторской диссертацией в 1983 году успешно защитил докторскую диссертацию по теме "Лечение острой деструктивной пневмонии у детей". С 1985 года А. Шамсиев работает заведующим отделением детской хирургии Самаркандского государственного медицинского института. В 1987 году ему было присвоено звание профессора.

В 1990 году по инициативе и под руководством А.М. Шамсиева было создано единственное в Центральной Азии научно-образовательный практический Центр детской хирургии. Данный Центр предоставляет высококвалифицированную специализированную медицинскую помощь по детской хирургии не только Самаркандской области, но и в пяти другим соседним регионам республики. Благодаря усилиям Азамата Мухитдиновича в Самарканде была создана собственная научно-практическая школа в области детской хирургии. В 1991 году он первым в

Самарканде провел исследование врожденных пороков сердца у детей раннего возраста. Внедрил эндоскопические методы диагностики и лечения в урологии и абдоминальной хирургии. И сегодня он по-прежнему выполняет на основе современных технологий сложные операции в отделениях торакальной хирургии, кардио-хирургии, урологии, хирургии новорожденных.

Профессор А.М. Шамсиев учёный-



новатор, создавший собственную научно-практическую школу в области детской хирургии. Он автор более 50 изобретений и патентов (в том числе 1 зарубежный) и 44 рационализаторских предложений в области детской хирургии, которые широко используются специалистами нашей республики и стран СНГ. Под его непосредственным руководством проводились научные исследования по 8 практическим и 1 инновационному проекту Комитета по развитию науки и технологий Кабинета Министров Республики Узбекистан.

В ноябре 2004 году директор Самаркандского областного научного центра детской хирургии, заведующий кафедрой детской хирургии, доктор медицинских наук, профессор А.М. Шамсиев был назначен ректором Самаркандского государственного медицинского института. И в истории института началась новая страница.

Под непосредственным руководством и усилиями профессора А.М. Шамсиева за истекший период в Самаркандском государственном медицинском институте был проведен целый пласт созидательной работы, укреплен материально-техническая база, открыты факультеты медицинской педагогики, высшего сестринского дела, стоматологии, медицинской профилактики, фармации, медико-биологического дела и факультет переподготовки преподавателей медицинских колледжей. Также был запущен современный центр

информационно-коммуникационных технологий, налажена видеокорпоративная связь с министерствами и зарубежными вузами. Кафедры и тестовый центр института были оснащены новыми компьютерами, а в учебный процесс внедрена полноценная система электронного обучения. Информационно-ресурсный центр пополнился электронной учебной и научной литературой. Учебные корпуса и общежития были полностью отремонтированы, коренным образом улучшены в них условия для проживания студентов.

В учебный процесс стали широко внедряться и инновационные педагогические технологии. Так, впервые в Узбекистане с 2013-2014 учебного года в соответствии с международными образовательными стандартами в институте была внедрена кредитно-модульная система, создана и начала функционировать дистанционная электронная система медицинского образования. Согласно рейтингу единого портала интерактивных услуг Республики Узбекистан "Tas-IX", Самаркандский государственный медицинский институт занимает лидирующие места среди более чем 2000 образовательных учреждений нашей страны и Российской Федерации по активности на информационных хостах.

Институтом были подписаны соглашения и меморандумы о научном сотрудничестве со многими медицинскими университетами по всему миру, в том числе с Пизанским университетом в Италии, Медицинским университетом Грац в Австрии, Софийским медицинским университетом в Болгарии, Пражским Центром развития в Чехии, Азиатским медицинским институтом, Госпиталем традиционной медицины Университета Санджи, медицинской клиникой Ильсан Пэк при Университете Индже Республики Корея, а также с 11 медицинскими университетами и 2 научно-исследовательскими институтами России, Грузии, Казахстана и Украины. В результате повышения международного престижа института сюда стали стремиться и студенты из других стран и как итог в настоящее время здесь по программе второго высшего образования учатся десятки студентов из Республики Корея.

Азамат Мухитдинович Шамсиев автор более 20 монографий (из них 5 за рубежом), 8 учебников и учебных пособий и более 1000 научных статей и тезисов. Под его руководством более 30 человек успешно защитили

ТАЛАНТЛИВЫЙ ОРГАНИЗАТОР, КРУПНЫЙ РУКОВОДИТЕЛЬ И ИЗВЕСТНЫЙ УЧЁНЫЙ-ХИРУРГ

...davomi, boshi 3 sahifada

докторские и кандидатские диссертации. А.М. Шамсиев является действительным членом Нью-Йоркской академии наук, Российской академии медицинских технологий, почетным академиком Ижевской медицинской академии, почетным профессором Австрийского медицинского университета Грац, членом Британской ассоциации здравоохранения, Европейской и Российской ассоциаций детской хирургии, обладателем высшей награды хирургов в странах СНГ - золотой медали им. А.В.Вишневого и лауреатом премии им. В.П.

Немсадзе.

В настоящее время профессор А.М. Шамсиев работает профессором кафедры детской хирургии Самаркандского государственного медицинского института, и вносит достойный вклад в подготовку научно-педагогических кадров и оказание квалифицированной хирургической помощи населению. Также в качестве члена президиума Самаркандского областного Кенгаша профсоюзов он принимает активное участие в проводимых мероприятиях по защите социальных и правовых интересов работников здравоохранения.

За свой самоотверженный

созидательный труд Азамат Мухитдинович Шамсиев был награжден орденом "Со?лом авлод учун" (2-степени), памятными знаками 10, 15, 20, 25-летия независимости Республики Узбекистан и наградным знаком "Отличник здравоохранения".

В канун его юбилея желаем Азамату Мухитдиновичу Шамсиеву крепкого здоровья, семейного благополучия, множество благодарных учеников и новых научных свершений во благо медицинской науки и системы здравоохранения страны.

Коллектив Сам ГМИ

RADIOLOGIYA VA YADRO MEDITSINASI BO'YICHA XALQARO KONFERENSIYA

Zamonaviy tibbiyotni fundamental fanlar va ularning yutuqlarisiz tasavvur qilish qiyin. Innovatsiyalarni amaliy tibbiyotga joriy qilinishi kasalliklarga tashxis qo'yish va shu yo'l orqali ularni oldinini olishda eng to'g'ri va haqqoniy yo'l hisoblanadi.

Shu kabi masalalarni xalqaro tajribasini muhokama etishga 2020 yil 10-sentyabr kuni Samarqand Davlat tibbiyot institutida "Diagnostik radiologiya va yadro meditsinasining tanlangan masalalari" mavzusida o'tkazilgan xalqaro ilmiy-amaliy onlayn konferensiyasi bag'ishlandi. O'tkazilgan xalqaro anjuman Samarqand Davlat tibbiyot institutining 90-yilligiga bag'ishlandi.

Tantanalni ochilish marosimida institut rektori professor Jasur Rizaev ishtiroqchilarni qutlab zamonaviy internet texnologiyalarni hayotimizga keng miqyosda kirib kelishini va bu kabi anjumanlarni o'tkazish imkonini mavjud ekanligini alohida ta'kidladi.

Konferensiyada respublikamiz hamda Rossiya, Germaniya, Quvayt kabi davlatlarni yetakchi oliy ta'lim

muassasalari va ilmiy-tekshirish institutlarini mutaxassislari va ilmiy xodimlari, yosh olimlari qatnashdilar va zamonaviy radiologiya va yadro meditsinasining hozirgi zamonda tibbiyot sohalarining barcha jabhalaridagi muhim o'rni, onkologiya, neyroxirurgiya, yuqumli kasalliklar, xirurgiya, terapiya va ayniqsa hozirgi kunda dolzarbligini yuqotmagan COVID-19 koronavirus pandemiyasi kabi masalalarga oid ma'ruzalar qildilar.

Xalqaro onlayn anjumanida sohaning dolzarb masalalari, shu jumladan radiologlar tayyorlashni xorijiy tajribasi, diagnostika va davolash jarayonida radiologiya va yadro meditsinasi fanlarini o'rni va roli, xorij tajribasini milliy tibbiyot oliygohlari o'quv jarayoniga va mamlakatimiz tibbiy muassasalarida davolash va diagnostika ishlariga amalda tadbir etish kabi masalalar muhokama qilindi.

Institutda bo'lib o'tgan "Diagnostik radiologiya va yadro meditsinasining tanlangan masalalari" xalqaro ilmiy-amaliy onlayn konferensiyasi so'zsiz

radiologlar tayyorlash sifatini oshirish hamda mamlakatimizda diagnostika va davolash masalalarini yanada rivojlanishiga o'zining munosib hissasini qo'shadi.

SamDTI matbuot xizmati

Ming rahmat, ustoz!



1-OKTABR- "O'QITUVCHI VA MURABBIYLAR KUNI"



Yuzingizda ajinlar ko'rdim,
Sochingizda oq ham bor bir oz.
Shu ajinlar, oq sochlar haqqi,
Raxmat sizga, ming raxmat ustoz.

Ko'zlaringizda bor quyosh zarrasi,
Yaxshiliklar sizda, sizda hammasi.
Kelajak yo'llarining yorqin oynasi,
Raxmat sizga, ming raxmat ustoz.

Ko'kda quyosh kezsa, siz yerdagi quyoshim.
Hayr demang jon ustoz bunga yetmas bardoshim.
Siz yurakka yaqinim, siz edingiz sirdoshim
Raxmat sizga ming raxmat ustoz.

Biz yulduz bo'lsak siz osmon ustoz,
Biz inson bo'lsak siz iymon ustoz,
Yo'limiz yopilsa siz imkon ustoz,
Raxmat sizga ming raxmat ustoz.

Yuzingizda ajinlar ko'rdim,
Sochingizda oq ham bor bir oz.
Shu ajinlar, oq sochlar haqqi,
Raxmat sizga, ming raxmat ustoz!!!!

Mohira SAYDALIYEVA
SamDTI 201- guruh tibbiy
profilaktika fakulteti



HOZIRGI ZAMON GEN TA'LIMOTINING PAYDO BO'LISHI

Hozirgi zamonda tibbiyot rivojlanishi bilan bir qatorda juda ko'p yutuqlarga erishilmoqda. Genni har tomonlama o'rganish natijasida gen to'g'risidagi ta'limot yaratildi. Har bir gen xromosomaning ma'lum bir joyida joylashadi, gen nukleotidlari ma'lum bir tartibda joylashgan DNK molekulasiining bir qismi, gen tarkibiga kiruvchi nukleotidlarning soni har bir gen uchun har xildir.

Gen injeneriyasi hozirgi kunda organizmlar irsiyatini o'zgartirishning eng qulay usullaridan biri bo'lib qoldi. Genlarni sun'iy hosil qilish usullarining yaratilishi irsiy kasalliklari bo'lgan kishilarda shu kasallikni keltirib chiqaruvchi mutant genni sog'lom gen bilan almashtirish imkoniyatini tug'dirdi. Ammo odamlarda genomning murakkabligi tufayli, hozirgi kunda, uning genomidan faqatgina ko'p takrorlanuvchi genlarnigina ajratish mumkin bo'lmoqda. G.Mendel tajribalarida tilga olingan irsiy omilni ifodalash uchun V.Logannsen 1909- yili fanga gen tushunchasini kiritdi. F.Dobjanskiyning fikricha gen irsiyat va mutatsiyaning birligi bo'lib, molekular darajadagi tushunchadir. K.Villining ko'rsatishicha gen - bu DNK molekulasiining bir bo'laki. S.Benzer ta'limotiga ko'ra esa gen juda mayda qismlardan sistron, muton va rekondan iborat. S.Benzer gaploid organizmlarda DNK molekulasiining bitta polipeptidini sintez qila oluvchi ma'lum bir bo'lagini sistron deb atadi. Bitta sistronda 1000 va undan ortiq nukleotid bo'lishi mumkin. Masalan, T? fagining A sistronida 1700 taga yaqin nukleotid bor.

Sistron bu genning vazifasini bajaruvchi DNK molekulasiining

ortiq belgining rivojlanishiga ko'rsatadigan ta'sirini shu genning pleyotrop ta'siri va bu hodisani pleyotropiya deyiladi. Genlarning pleyotrop ta'siri, xususiyatlari yaxshi o'rganilgan. Bitta gen ishtirokida hosil bo'lgan ferment faqat bitta belgini aniqlab qolmasdan ikkilamchi belgilarning hosil bo'lishiga ham o'z ta'sirini ko'rsatib, ularning o'zgarishiga olib keladi. Pleyotropiya hodisasi tabiatda keng tarqalgan. Genlarning pleyotrop ta'siri birinchi marta Mendel tomonidan aniqlangandi.

Mendelning kuzatishicha to'q qizil gulli o'simliklar bargining asosida qizil dog'lar bo'lib, urug'ining po'sti esa kulrang yoki qo'ng'ir bo'ladi. Bu uchta belgi bitta irsiy omil bilan yuzaga chiqishini tushuntiradi. Drozofila pashshalarining ko'zining oq rangda bo'lishligini belgilovchi gen bir vaqtning o'zida tananing rangiga, qanotining uzunligiga, jinsiy organining tuzilishiga o'z ta'sirini ko'rsatib, uning serpushtligini susaytiradi, yashash muddatini qisqartiradi.

Ekspressiv va penetrant tushunchalarini birinchi bo'lib fanga 1927- yili rus olimi N. V. Timofeyev-Resovskiy kiritgan. Ekspressivlik bu gen ishtirokida fenotipda yuzaga chiqadigan belgining har xil darajada paydo

bo'lagidir. Muton - bu genning o'zgarishi ya'ni mutatsiyaga uchrashi mumkin bo'lgan eng kichik qismi. Rekon esa genning qayta tuzilishi (rekombinatsiya) mumkin bo'lgan qismidir.

Pleyotropiya. Bitta genning ikki va undan

bo'lishiga shu genning ekspressivligi deyiladi. Masalan, odamda bitta gen ta'sirida yuzaga chiqadigan biror fenotipik belgi xuddi shunday geni bo'lgan boshqa odamda bunday yuzaga chiqmaydi. Bu belgi ayrim odamlarda sezilarsiz darajada paydo bo'lsa, ayrimlarda o'rtacha va boshqalarda juda yaqqol ifodalanib organizmning morfologik va fiziologik jihatdan buzilishiga olib kelishi mumkin. Hosil bo'lgan belgi agar normadan ozgina farq qilsa, shu belgini rivojlantiruvchi gen past darajali ekspressivlikka ega ekanligini ko'rsatadi. Agar belgi normadan juda katta farq qilsa genning yuqori darajali ekspressivligini bildiradi. Genning ekspressivligi gen belgisini yuzaga chiqarishda uning o'zgaruvchanligini ko'rsatadi. Masalan, odamlarda ko'rsatkich barmoqning kalta bo'lishi (kichik broxidaktilya) dominant gen ta'sirida yuzaga chiqadi. Odamlarda ko'rsatkich barmoq juda kalta bo'lib, ayrimlarda esa sezilarsiz darajada bo'lishi mumkin. Fenilketonuriya kasalligi odamlarda juda yengil, o'ta og'ir darajada bo'lishi mumkin. Shizofreniya kasalligida odam psixikasining yaqqol va uncha sezilarsiz darajada o'zgarishini ko'rish mumkin. Genning ekspressivligi tashqi muhit sharoitiga bog'liq.

Penetrantlik. Gen yuzaga chiqargan fenotipik belgining son jihatidan ifodalanishiga penetrantlik deyiladi. Bu ko'rsatkich foiz bilan belgilanadi. Ma'lum bir gen o'z belgisini shu genga ega bo'lgan organizmlarning hammasida ham yuzaga chiqaravermaydi, ya'ni ayrim organizmlarda shu genning belgisi fenotipda yuzaga chiqsa, boshqalarida esa chiqmasligi mumkin.

**Umidbek IBRAGIMOV
Fayruza IBRAGIMOVA
Samarqand davlat Tibbiyot
instituti talabalari**

YIL TALABASI-2020

Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim olayotgan hamda yuqori natijalarga erishgan talaba-yoshlarni rag'batlantirish maqsadida "Yil talabasi-2020" Respublika tanlovi o'tkaziladi.

Tanlovning barcha bosqichlari pandemiya davri talabalaridan kelib chiqqan holda, masofaviy (onlayn) tarzda o'tkazilishi belgilangan.

Tanlov quyidagi nominasiyalar bo'yicha o'tkaziladi:

- 👉 "Yilning o'z mutaxassisligi bo'yicha eng bilimdon talabasi";
- 👉 "Yilning eng faol tashabbuskor-targ'ibotchi talabasi";
- 👉 "Yilning eng faol ixtirochi-innovator talabasi";
- 👉 "Yilning eng faol sportchi talabasi";
- 👉 "Yilning eng faol ijodkor talabasi";
- 👉 "Yilning eng faol blogger talabasi";
- 👉 "Yilning eng namunali tadbirkor talabasi".

Tanlovning oliy ta'lim muassasasidagi bosqichi oktyabr oyida o'tkaziladi.

Tanlovning Respublika bosqichida har bir nominasiyalar bo'yicha 1, 2 va 3-o'rin sovrindorlari bo'lgan ishtirokchilar Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining tegishli darajadagi diptomlari bilan taqdirlanadilar.

1-o'rin sohibiga eng kam ish haqining 10 barobari miqdorida, 2-o'rin sohibiga eng kam ish haqining 8 barobari miqdorida va 3-o'rin sohibiga eng kam ish haqining 5 barobari miqdorida pul mukofoti berish tizimi joriy etiladi.

"Yil talabasi-2020" tanlovining utkazishi S X E M A S I

Bosqichlar	Tadbiirlar	Utkazishi muddatlari
I bosqich Oliy ta'lim muassasasi bosqichi	1. Tanlov komissiyasining tarkibini shakllantirish va tasdiqlash.	1. 30 sentyabr – 5 oktyabr
	2. Tanlovning oliy ta'lim muassasasi bosqichi axborot ta'minatini tashkil etish.	2. 30 sentyabr – 30 oktyabr
	3. Ishirokchilardan ariza va hujjatlarni kabul qilishni tashkil qilish.	3. 5 oktyabr – 15 oktyabr
	4. Tanlov komissiyasi tomonidan ishirokchilar ta'dim etgan hujjatlarini kuzrib chiqish.	4. 16 oktyabr – 25 oktyabr
	5. Tanlovning oliy ta'lim muassasasi bosqichi goliplarini aniqlash.	5. 26 oktyabr – 30 oktyabr
	6. Goliplarga tanlovning respublika bosqichida ishirok etish uchun tavsiyomalar berish.	6. 30 oktyabr – 31 oktyabr
II bosqich Respublika bosqichi	1. Respublika tanlovining kumitasioni tarkibini shakllantirish va tasdiqlash.	1. 30 oktyabr gacha
	2. Oliy ta'lim muassasalaridan tanlovning oliy ta'lim muassasasi bosqichida 1-urinni egallab goliplarni nomozdalarining hujjatlarini kabul qilish.	2. 1 noyabr – 15 noyabr
	3. Tanlovga kelib tushgan hujjatlarini kuzrib chiqish.	3. 16 noyabr – 5 dekabr
	4. Ijinalishlar b'uyicha tanlov goliplarini aniqlash.	4. 9 dekabr – 16 dekabr
	5. Tanlov goliplarini mukofotlashni tashkil etish va utkazish.	5. 20 dekabr – 25 dekabr
	6. Tanlovning utkazishi ommaviy axborot vositalarida keng e'ritishni tashkil etish.	6. 1 oktyabr – 30 dekabr



КОНКУРС НА СТИПЕНДИАЛЬНУЮ ПРОГРАММУ ПОСОЛЬСТВА СЛОВАКИИ

Посольство Словакии сообщает вам, что новый конкурс заявок в рамках Национальной Стипендиальной Программы Словацкой Республики открыт для студентов, докторантов и преподавателей ВУЗов Узбекистана для прохождения учебы, исследований, художественных и лекционных курсов в летнем семестре 2020/2021 учебного года.

Крайний срок подачи заявок на стипендию - 31 октября 2020 года в 16:00. Заявки подаются онлайн (НЕ в Посольство Словакии) на сайте www.scholarships.sk (для международных заявителей).

Национальная стипендиальная программа Словацкой Республики поддерживает мобильность иностранных студентов, аспирантов, преподавателей вузов, исследователей и художников для стажировки в словацких вузах и словацких научно-

исследовательских организациях. Стипендиальная программа финансируется из бюджета Министерства образования, науки, исследований и спорта Словацкой Республики и SAIA. Стипендиата НСП являются стипендиатами Правительства Словацкой Республики.

Что такое Национальная стипендиальная программа?

- В 2005 г. Правительство Словацкой Республики одобрило создание Национальной стипендиальной программы для поддержки мобильности студентов, аспирантов, преподавателей ВУЗов, научных сотрудников и работников в сфере искусства.
- Национальная стипендиальная программа Словацкой Республики (НСП) поддерживает учебные, преподавательские, научные/художественные стажировки в ВУЗах и научно-исследовательских организациях. Программа поддерживает двустороннюю мобильность: так иностранных стипендиатов в Словакию,
- Стипендиаты НСП являются стипендиатами Правительства Словацкой Республики. НСП финансирует Министерством образования, науки, исследований и спорта Словацкой Республики, и администрирует ее SAIA n.o.

SAIA, n. o.

SAIA, n. o. (Словацкое академическое информационное агентство) некоммерческая неправительственная организация основана в 1990 г. Своими программами и услугами укрепляет гражданское общество и поддерживает интернационализацию образования и науки в Словакии. SAIA предоставляет информацию и консультации, связанные с учебной и научной мобильностью, администрирует несколько программ стипендий и грантов, и продвигает словацкие ВУЗы и научно-исследовательские организации за рубежом.

Главные программы SAIA:

- Академическая мобильность
- СЕЕPUS – Центрально-европейская программа обмена для университетского обучения
- Акция Австрия – Словакия, сотрудничество в области науки и образования
- Национальная стипендиальная программа Словацкой Республики
- Сервисные центры EURAXESS для исследователей



NATIONAL SCHOLARSHIP PROGRAMME OF THE SLOVAK REPUBLIC

saia
www.saia.sk

Контакты

SAIA, n. o.
Sasinkova 10
812 20 Bratislava 1
Словакия

Тел.: +421/2/59 30 47 00
+421/2/59 30 47 11
Факс: +421/2/59 30 47 01

www.saia.sk

npr-for@saia.sk
(информация для иностранных претендентов)

npr-sk@saia.sk
(информация для словацких претендентов)

© SAIA, n. o., 2017

NŠP
National Scholarship Programme

Национальная стипендиальная программа Словацкой Республики

Стипендии и гранты для студентов, аспирантов, преподавателей ВУЗов, научных сотрудников и работников в сфере искусства

www.scholarships.sk

Иностранные претенденты на стипендию на стажировку в Словакию

Что предоставляется?

- стипендия для покрытия расходов на проживание
- **студентам** иностранных ВУЗов на учебную стажировку в ВУЗе в Словакии (1 – 2 семестра) во время высшего образования (или во время магистратуры или во время высшего образования вообще, если претендент на стипендию будет во время прохождения стажировки закончен как минимум 3 года высшего образования).
- **аспирантам** иностранных ВУЗов/научно-исследовательских организаций на учебную или научно/художественную стажировку (1 – 10 месяцев), во время обучения в аспирантуре, в ВУЗе/научно-исследовательской организации в Словакии, имеющей право осуществлять программу аспирантуры
- **преподавателям ВУЗов, научным сотрудникам или работникам в сфере искусства** иностранных ВУЗов/научно-исследовательских организаций на преподавательскую или научно/художественную стажировку (1 – 10 месяцев) в ВУЗе или научно-исследовательской организации и аспирантов на учебную или научно стажировку в Словакию.

Граждане каких стран могут претендовать на стипендию?

На стипендию могут претендовать граждане любой страны мира, кроме граждан Словацкой Республики.

Размер ежемесячной стипендии?

- студент ВУЗа 350 €
- аспирант 580 €
- преподаватель ВУЗа, научный сотрудник или работник в сфере искусства:
 - без ученой степени кандидата наук (PhD) и с опытом работы не более 4 года 580 €
 - с ученой степенью кандидата наук (PhD) и с опытом работы не более 10 лет 850 €

• с ученой степенью кандидата наук (PhD) и с опытом работы более 10 лет 1 000 €

Размер стипендии рассчитан так, чтобы покрыть расходы на проживание стипендиата во время стажировки в Словакию.

Размер дотации для оплаты путевых расходов?

Студенты и аспиранты могут претендовать на дотацию для оплаты путевых расходов. Ее размер зависит от расстояния (по прямой линии) между местом жительства претендента за рубежом и местом пребывания в Словакии.

- до 750 км – 0 €
- от 751 до 1 500 км – 100 €
- от 1 501 до 3 000 км – 300 €
- более 3 000 км – 700 €

Как подать заявку?

Заявки подаются онлайн на www.scholarships.sk. Система открыта (по крайней мере) в течение 6 недель до крайнего срока подачи заявок. Заявки на стипендию должны быть поданы в онлайн системе не позднее крайнего письма приглашения. Также необходимо отправить в SAIA Bratislava оригинал письма приглашения. Детальная информация, касающаяся подачи заявок и необходимых документов, находится на сайте программы.

Когда подаются заявки?

- **30 апреля** до 16:00 часов CET – стажировки в течение следующего учебного года
- **31 октября** до 16:00 часов CET – стажировки в течение летнего семестра текущего учебного года

Обязательные условия и более подробная информация о программе на: www.scholarships.sk

Словацкие претенденты на стипендию на стажировку в Словакию

Что предоставляется?

- стипендия для покрытия расходов на проживание
- **студентам** словацких ВУЗов на учебную стажировку в ВУЗе в Словакии (1 – 2 семестра или 1 – 3 триместра) во время магистратуры или научно/художественную стажировку узко связанную с подготовкой дипломной работы (3 – 6 месяцев)
- **аспирантам** словацких ВУЗов (включая внешние учебные заведения, например, Словацкую академию наук) на учебную или научно/художественную стажировку в Словакию (1 – 10 месяцев) во время аспирантуры

- **постдокторантам** словацких ВУЗов или научно-исследовательских организаций на научную стажировку в Словакию (3 – 6 месяцев) после окончания аспирантуры в Словакии (или научной стажировки, работавшей в ВУЗе или научно-исследовательской организации в Словакии, в течение системы кандидатской (PhD) в день крайнего срока подачи заявок в онлайн систему).
- **длительный грант** для оплаты путевых расходов (или их части) связанных с учебной или научной/художественной стажировкой в рамках НСП.

В каких странах можно пройти стажировку?

Стипендиаты из Словакии могут пройти стажировку в рамках НСП в любой стране мира.

Размер ежемесячной стипендии?

Размер стипендии определен для каждой страны мира отдельно. Стипендия рассчитана так, чтобы покрыть расходы на проживание связанных со стажировкой. При определении размера стипендии рассматриваются только расходы на жилье. Другие расходы (например, оплата за обучение) не рассматриваются. Размер стипендий в странах, в которых стипендиаты НСП уже проходили стажировку, находится на сайте www.stipendia.sk.

Размер дорожного гранта?

Дорожный грант – дотация для оплаты путевых расходов (или их части), связанных с поездкой на стажировку в Словакию и обратно. Стажировка должна длиться не менее 1 месяца в случае аспирантов, 3 месяца в случае постдокторантов и 1 семестра/триместра в случае студентов. Отборочная комиссия определяет размер гранта, учитывая актуальные цены транспорта и финансовые возможности программы.

Как подать заявку?

Заявки подаются онлайн на www.stipendia.sk. Система открыта (по крайней мере) в течение 6 недель до крайнего срока подачи заявок. Заявки на стипендию должны быть поданы в онлайн системе не позднее крайнего срока подачи заявок. Детальная информация, касающаяся подачи заявок и необходимых документов, находится на сайте программы.

Когда подаются заявки?

- **30 апреля** до 16:00 часов CET – стажировки в течение следующего учебного года
- **31 октября** до 16:00 часов CET – стажировки в течение летнего семестра текущего учебного года


Обязательные условия и более подробная информация о программе на: www.stipendia.sk

Правила и условия программы по ссылке: <https://www.stipendia.sk/ru/main/pravila-i-uslovia-programy-inostrannyye-pretendenty>

В приложении также подробные файлы о Национальной Стипендиальной Программе на русском и английском языках. Дополнительная информация также на сайтах: www.stipendia.sk, www.scholarships.sk.

Контакт администратора программы: Ондрей Арадский - ondrej.aradsky@saia.sk.

Пресс-служба СамГМИ



SUYUNOV SAYFULLA (1936 - 2020)

Beshafqat o'lim oramizdan ajoyib dilkash inson, taniqli pedagog, falsafa fanlari nomzodi, dotsent Sayfulla Suyunovni olib ketdi.

Ustoz 1936 yili Samarqand viloyatini Qo'shrabot tumanida dunyoga kelganlar. 1960 yilda A.Navoiy nomidagi Samarqand Davlat universiteti tarix fakultetini bitirgandan so'ng Samarqand kooperativ (hozirda iqtisodiyot va servis) instituti va Samarqand davlat tibbiyot institutida (o'rindoshlik asosida) mehnat faoliyatini davom ettirgan. O'zbekistonda falsafa fanini asoschilaridan biri, alloma ustoz, akademik-olim I. Muminov rahnamoligida falsafa fanlari nomzodi ilmiy darajasiga erishgan, dotsent.

Sayfulla Suyunov viloyat va shahar jamoatchilik ishlarila, jumladan nuroniylar bilan ishlash, maxalla tizimini rivojlantirish jarayonlarini faol a'zosi sifatida qatnashib o'zining munosib hissasini qo'shdi. Ko'p yillar davomida o'zi yashab turgan "R.

Shokirbekov" mahalla yig'inini boshqarib aholi orasida katta hurmat va e'tiborga sazovor bo'ldi.

Zukko olim va tinchimas tadqiqotchi sifatida S. Suyunov yuzlab maqola, monografiya va o'quv qo'llanmalar muallifi bo'ldi, ko'p marta oliy ta'lim vazirligi va viloyatimiz rahbariyati faxriy yorliqlariga sazovor bo'ldi.

Samarqand davlat tibbiyot institutida ustoz o'rindosh sifatida ishlaganlariga qaramasdan, o'zining fidoyiligi, tug'ma murabbiylik iste'dodi bilan bu ulug' dargohda yosh avlodni ta'lim-tarbiyasiga chuqur iz qoldirdi. Bir necha yillar davomida



institut bakalavriat hamda magistratura bitiruvchilariga Yakuniy Davlat attestatsiyasini raisi sifatida ham qatnashib keldi.

Fidoi va mehribon ustoz Sayfulla Suyunov doimo yoshlar, talabalar va yosh o'qituvchilarga g'amxo'r va mehribon edi, befarqlikni doimo qoralab, o'zining boy xayotiy va ilmiy-pedagogik tajribasidan kelib chiqqan maslahatlar berishdan charchamas, barchaga yoshi katta inson qanday bo'lishi kerak ekanligini namunasi bo'ldi.

Mehribon ustozimiz Sayfulla Suyunovni oxirlari obod bo'lsin, yaqinlari, qizlari va nabiralariга sabri jamil ato etsin!

**Sayfulla Suyunov
xaqida yorqin
xotiralar qalbimizda
abadiy saqlanajak!**

**SamDTI jamoasi,
Gumanitar va ijtimoiy fanlar
kafedrası**

Samarqand davlat tibbiyot instituti yana bir og'ir judolikka uchradi. Shafqatsiz o'lim oramizdan mohir shifokor va ajoyib pedagog, institutni "Onkologiya" kafedrası o'qituvchisi Saidkulov Bunyod Suyunovichni olib ketdi.

Saidkulov Bunyod Samarqand viloyati, Urgut tumanini Beshkapa qishlog'ida 1981 yilda tug'ilgan. Samarqand davlat tibbiyot institutida avval pediatriya fakultetida, so'ng 2009 yili onkologiya ixtisosligi bo'yicha magistratura ni muvaffaqiyatli bitirgandan so'ng sog'liqni saqlash tizimida ishlay boshladi. Jizzax viloyatini onkologiya dispanserini vrach-onkologi, Samarkand



SAIDKULOV BUNYOD (1981-2020)

viloyat onkologiya dispanseri jarroxlik majmuasi bo'limi boshlig'i, Samarkand davlat tibbiyot instituti onkologiya kafedrası assistenti va kafedra o'quv ishlari mudiri, kafedra assistenti lavozimlarida ishlab keldi.

Mamlakatimizda butun jahon mamlakatlari kabi pandemiya kirib

kelganidan so'ng ushbu kurashda o'zining hissasini qo'shish maqsadida B.S. Saidkulov institutda tashkil etilgan Call-markazida va Samarqand shahrida faoliyat yuritayotgan karantin zonalarda ishladi. Bunda uning mehnatsevarligi, fidoyiligi va vatanparvarligi to'liq namoyon bo'ldi.

Ajoyib inson va mohir shifokor-pedagog Bunyod Suyunovich Saidkulovni yorqin xotirasi qalbimizda doimo saqlanib qoladi.

Marhumning oila a'zolari va kasbdoshlariga chuqur hamdardlik bildiramiz, sabru bardosh tilaymiz!

Samarqand davlat tibbiyot instituti jamoasi

GULYAMOV FARXOD (1939 - 2020)

Beshafqat o'lim, mohir pedagog va shifokor ustoz Farxod Gulyamovni oramizdan olib ketdi.

F.X.Gulyamov 1939 yil Samarqand shahrida to'g'ilgan. 1962-1968 yillar institutda taxsil olib, 1972-1982 yillarda Surxondaryo viloyati Sherobod tumanida vrach terapevt lavozimida ishlagan.

Farxod Xodjimuxamedovich 1982 yildan 2010 yilgacha institut 2-son gospital terapiya va 1-son UASH terapiya

kafedralarida assistent, dosent hamda institut klinikasida bo'lim boshlig'i lavozimlarida ishlagan.

Farxod Gulyamov 2020 yil 29-sentyabr kuni 81 yoshida vafot etdi.

Farxod Xodjimuxamedovich Gulyamovning porloq xotirasi institut jamoasi va uning hamkasblari hamda shogirdlari qalbidagi abadiy saqlanajak.

Samarqand davlat tibbiyot instituti ma'muriyati va jamoasi





E'lonlar!

SamDTI kafedra mudiri lavozimlariga tanlov e'lon qiladi

DAVOLASH ISHI FAKULTETI

4 - son ichki kasalliklar kafedrasini - 1 o'rin;
Onkologiya kafedrasini - 1 o'rin.

PEDIATRIYA FAKULTETI

Oftalmologiya kafedrasini - 1 o'rin;
2 - son bolalar xirurgiyasi kafedrasini - 1 o'rin;
Ichki kasalliklar kafedrasini - 1 o'rin;

KASBIY TA'LIM (DAVOLASH ISHI) FAKULTETI

Tillar kafedrasini - 1 o'rin.

TIBBIY PROFILAKTIKA, JAMOAT SALOMATLIGI VA TIBBIY BIOLOGIYA FAKULTETI

Umumiy gigiyena va ekologiya kafedrasini - 1 o'rin;
Mikrobiologiya, virusologiya va immunologiya kafedrasini - 1 o'rin;
Tibbiy biologiya va genetika kafedrasini - 1 o'rin.

STOMATOLOGIYA FAKULTETI

2 - son stomatologiya kafedrasini - 1 o'rin.

OLIY HAMSHIRALIK ISHI FAKULTETI

Teri-tanosil kasalliklar kafedrasini - 1 o'rin.

FARMATSIYA FAKULTETI

Tibbiy kimyo kafedrasini - 1 o'rin.

DIPLOMDAN KEYINGI TA'LIM FAKULTETI DKTF

DKTF ichki kasalliklar kafedrasini - 1 o'rin.

Kafedra mudiri lavozimini egallash uchun tanlovda fan doktori, fan nomzodi ilmiy darajasiga, professor yoki dotsent ilmiy unvoniga, shuningdek falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasiga ega bo'lgan shaxslar qatnashishi mumkin.

Hujjatlar e'lon qilingan kundan boshlab bir oy davomida qabul qilinadi.

Manzil: Samarqand shahri A.Temur ko'chasi, 18 uy.
SamDTI ilmiy kotibi.

OCHIQ MA'RUZALARDA QATNASHING

2020 yil 3 oktyabr kuni 2-Pediatriya neonatologiya kursi bilan kafedrasini mudiri t.f.d. dotsent N.I. Axmedjanova "Surunkali gepatit, bolalarda kechish xususiyatlari, kasallikni erta davrida qiyosiy tashxis mezonlari, davolash usullari, asoratlari" mavzusida pediatriya fakultetining 518-522 guruh talabalari uchun ochiq ma'ruza o'tkazadi.

Tahririyat raisi:
J.A. RIZAYEV

Bosh muharrir:
E.S. TANGIROV

Tahrir hay'ati:
G'.U. LUTFULLAEV,
S.A. KARABAEV,
S.E. MAMARADJABOV,
A.A. AXMEDOV,
J.F. KADIROV.

SHIFOKOR SO'ZI

Nashr uchun mas'ul:
N. MUSURMANOV

Orerator va sahifalovchi:
A.KELDIYAROV
Fotomuxbir:
O.AXMEDOV

Gazeta Samarqand viloyat matbuot va axborot boshqarmasi tomonidan 18.01.2007 y. №09-33 raqami bilan ro'yxatga olingan.
INDEKS: 5539

Gazeta har oyda bir marta to'liq rangli shaklda chop etiladi va bepul tarqatiladi

MANZIL: Samarqand shahri, Amir Temur ko'chasi 18-uy.
Tel: (99866) 233-09-76 Faks: (99866) 233-71-75
e-mail: shifokor@samti.uz, sammi@sammi.uz

Gazeta SamDTI bosmaxonasida, ofset usulida chop etiladi. Nashrga ruxsat berildi: 2020 yil, 29-sentyabr. Adadi 100 nusxa. Buyurtma: № 93

SHIFOKOR SO'ZI

"ФУНДАМЕНТАЛЬНАЯ НАУКА В СОВРЕМЕННОЙ МЕДИЦИНЕ"



Самаркандский государственный медицинский институт приглашает Вас 16-17 октября 2020 года принять участие в Юбилейной научно-практической конференции с международным участием "Фундаментальная наука в современной медицине", посвященной 90-летию Самаркандского государственного медицинского института. В работе конференции планируется участие ведущих зарубежных ученых в области фундаментальной и клинической медицины, экспертов медицинского и фармацевтического образования.

Организаторы конференции: Самаркандский государственный медицинский институт, Министерство здравоохранения РУз, Министерство высшего и среднего специального образования РУз.

Основные научные направления программы конференции:

- * Фундаментальная медицина;
- * Клиническая медицина;
- * Медицинское образование.

Официальные языки конференции: узбекский, русский и английский.

Участие в Юбилейной научно-практической конференции с международным участием "Фундаментальная наука в современной медицине" бесплатное. Материалы для участия в конференции принимаются до 10 сентября 2020 года (включительно). Тезисы доклада, оформленные в соответствии с требованиями, а также заявку на участие в конференции необходимо направить в Оргкомитет конференции по электронной почте konfsammi90@sammi.uz. В случае несоответствия требованиям к оформлению, присланные материалы будут отклонены Редакционной коллегией. Все работы будут проверены на предмет плагиата. Материалы научно-практической конференции будут опубликованы в периодическом научном издании "Журнал проблемы биологии и медицины".

Место проведения: Узбекистан, Самарканд

Дата мероприятия: 16-17/10/2020